

BUYUK IPAK YO‘LIDA MILLIY URF-ODATLAR VA DINIY AN‘ANALARNING O‘ZARO ALOQADORLIGI VA TA‘SIRI

Aliqulov Bekmurod Tolibjon o‘g‘li

Zarmed universiteti “Ijtimoiy fanlar kafedrası” o‘qituvchisi

Annotatsiya. Buyuk ipak yo‘li – qadimda sharq bilan g‘arbni bo‘g‘lab turgan savdo yo‘li, insoniyat rivojlanishi tarixining, uning birlashuvga hamda madaniy qadriyatlari bilan almashishga, urf-odatlar va diniy an‘analarning o‘zaro qorishuviga, hayotiy fazo-yu mahsulotlarni sotish uchun bozorlarga erishishga intilishining o‘ziga xos bo‘lgan hodisasi. Dengiz, okean yo‘llari ochilmasdan oldin bu yo‘llar muhim ahamiyat kasb etgan.

Kalit so‘zlar: Buyuk Ipak yo‘li, So‘g‘diyona, animizm, totemizm, buddizm, zardushtiylik farishtalar, ruhlar, jinlar Umay ilohasi, yollanma yig‘lovchilar, Mug‘ tog‘i.

Аннотация. Великий шёлковый путь – это древний торговый маршрут, соединявший Восток и Запад. Он представляет собой уникальное явление в истории развития человечества – стремление к объединению, обмену культурными ценностями, смешению обычаев и религиозных традиций, а также к достижению рынков для продажи товаров и жизненно важного пространства. До открытия морских и океанских путей этот маршрут имел важнейшее значение.

Ключевые слова: Великий Шелковый Путь, Согдиана, анимизм, тотемизм, буддизм, зороастризм, ангелы, духи, джины, божество Умай, наемные плакальщицы, гора Муг.

Abstract: The Great Silk Road was an ancient trade route that connected the East and the West. It represents a unique phenomenon in the history of human development – a drive toward unity, the exchange of cultural values, the intermingling of customs and religious traditions, and the pursuit of markets to sell goods and access vital spaces. Before the discovery of sea and ocean routes, these paths held great significance.

Key words: Great Silk Road, Sogdiana, animism, totemism, Buddhism, Zoroastrianism, angels, spirits, jinn, the deity Umay, hired mourners, Mount Mug.

Sharqda aytiladigan naqlga qaraganda: “O‘tirgan – bo‘yra, yurgan – daryo”. Harakatlanish – bu hayotdir, sayohat qilish, jahongashtalik doimo taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi bo‘lgan edi. Insoniyat tarixida eng ulkan bo‘lgan ushbu qit‘alararo savdo yo‘li Yevropa va Osiyoni bir-biriga bog‘lab, o‘tmishda antik Rim davlatidan to Yaponiyaning qadimgi poytaxti Nara shahrigacha cho‘zilgan edi. Albatta, sharq va G‘arb o‘rtasidagi savdo o‘tmish qa‘riga cho‘kkan qadim-qadim zamonlardan beri olib borilar edi, lekin bu kelgusida bunyod etilgan Buyuk yo‘lning alohidagi qismlari edi. Savdo aloqalari hosil bo‘lishiga Markaziy Osiyo tog‘larida yarim qimmatbaho toshlar – Sharqda nihoyatda qadrlangan lazurit, nefrit, aqiq, feruzalar qazib chiqariladigan konlarni topib, qazib olish ko‘p jihatdan ko‘maklashgan. Masalan, Markaziy Osiyodan Eronga, Mesopotamiyaga va hatto Misrga lazurit toshi yetkazib beriladigan „lazurit yo‘li“ mavjud edi. U bilan bir paytda „nefrit yo‘li“ ham tarkib topgan, bu yo‘l Xotan va Yorkend tumanlarini Shimoliy Xitoy mintaqalari bilan bog‘lar edi. Bundan tashqari, Old Osiyo mamlakatlariga So‘g‘diyona va Baqtriya davlatlaridan aqiq toshlari olib ketilar edi, Xorazmdan esa feruza keltirilgan. Bu yo‘nalishlarning barchasi oxir-oqibat Buyuk Ipak yo‘liga kirib mujassamlashgan. Markaziy Osiyodan G‘arbg va Janubga o‘tkazilgan karvon yo‘llarini hamda Xitoydan Sharqiy Turkistonga olib boradigan yo‘llarni o‘zaro bog‘lab bergan buyuk yo‘lning haqiqiy boshlanishini tarixchilar eramizdan avvalgi ikkinchi asrning o‘rtalarida, deb hisoblaydilar,

Buyuk Ipak yo‘lida ko‘plab o‘lkalarining o‘zaro savdo-sotiq aloqalari natijasida shubhasiz madaniyatlar, urf-odatlar va diniy ananalar qorishuvi sodir bo‘lganligi tabiiy hodisa. Jumladan bizning yurtimizdagi So‘g‘diyona, Baqtriya va boshqa o‘lkalarda ham ushbu jarayonlar sodir bo‘lganligini ko‘rishimiz mumkin.

Ibtidoiy ajdodlarimiz amal qilgan dastlabki diniy aqida “animizm”dir (“Animizm”-lotin tilidan olingan bo‘lib “anima”- “qalb”, va “animus”-“ruh” degan ma’nolarni anglatadi. Bu diniy aqida ancha takomillashgan bo‘lib, u keyingi dinlarning shakllanishida ham sezilarli rol o‘ynagan. Bu diniy aqidaning ko‘pgina unsurlari dunyoviy dinlarga ham ko‘chib o‘tgan). Ibtidoiy odamlar o‘lgan kishining qayta tirilmasligini anglaganlaridan so‘ng, “ruh hamisha tirik”, u narigi dunyoda yashaydi, degan fikrga kelgan. Vafot etgan qabila boshliqlari, jasur jangchilar va otalarining ruhlari tiriklarni turli balo-qazolardan asraydi, degan ilinjda ruhlarga sig‘ingan, ularga bag‘ishlab har xil diniy marosimlar o‘tkazgan. Bu diniy aqida ajdodlar ruhiga sig‘inish deb nom olgan. Qadimgi Sug‘dda ham bu diniy aqida keng yoyilganligi ilmiy adabiyotlarda qayd qilingan.

Samarqand muzeyida saqlanayotgan noyob ostadon ushbu tasavvurlarni yaqqol

namoyish etadi. Unda olov yonib turgan mehrob yaqinidagi koinlar tasvirlangan, mehrob ustida esa farishtalar uchib yuribdi. Ya’ni, o’limdan keyin qalb-ruh o’zining yo’lini olovli mehrob ostonasidan-olovli taxtdan boshlaydi, bu yerda qurbonliklar qilinadi.

Zardushtiylik va moniylik dini aqidalariga ko’ra, marhumlar dastlab yuqorilab boradilar va nur sochuvchi fravashi-ruhlarga aylanadilar, ammo tiriklar dunyosi bilan aloqani uzmaydilar. Navro’z (yangi yilning birinchi kuni)dagi o’n kun arafasida-o’lganlarning ruhini sharaflash marosimida, fravashi (Zardushtiylik dinidagi ezgu ruh) tiriklarning uyiga, “Ularga duolar bag’ishlashi va ishonishlarini” bilishga keladi¹. Agarda tiriklar ularni eslagan bo’lsalar, fravashilar tinch bo’lib ularni duo qiladilar. Shu sababli zardushtiyalar o’z niyatlarini amalga oshirish uchun, har kuni ular sharafiga duolar o’qiydilar.

Xitoy tarixnavislarining yozishicha, Markaziy Osiyoda ma’lum kunlari ajdodlarning suyaklari solingan oltin quticha oldida tantanali sajda qilingan. “Ushbu maxsus kunlar” Navro’zdan oldingi o’n kunlikka to’g’ri keladi, deb ta’kidlaydilar. Olimlarning fikricha, turli xalqlarning farishtalar-ruhlarga bag’ishlangan marosimlari tabiatning uyg’onishi sharafiga qurbonliklar qilish bilan birga amalga oshiriladi. Bu kunlarda “Sug’d aholisi ... oh-voh va ko’zda yosh bilan o’z yuzlarini yuladilar, marhumlar sharafiga ovqat va ichimliklar qo’yadilar².

Yig’lash va o’zini azoblash bilan kechuvchi xotirlash marosimlari tiriklarga yordam berish uchun ajdodlar ruhini chaqirish maqsadida qilingan.

Markaziy Osiyodagi sak-massaget qabilalarida, odamda ikkita ruh bo’ladi, bittasi o’lim bilan birga tanani darhol tark etadi, ikkinchisi esa ma’lum vaqt marhumning yonida bo’ladi va tiriklar bilan aloqa o’rnatadi, degan tasavvur bo’lgan.

Qadimgi dunyoning turli xalqlari marhumning yaxshiliklari va topganlari narigi dunyoga ketib qolmasligi uchun uni o’z uyiga ko’rganlar. Vergiliy rimliklarda ham bo’lgan bunday odatni shunday tushuntiradi: marhumning ruhi uyga homiylik qiluvchi xudolarga aylanadi, shu sababli keksayib vafot etganlarni uydan olib chiqishmagan Vaqt o’tishi bilan bu odatni o’lganning tasviriga sajda qilish bilan almashgan. Shu maqsadda rimliklar o’z ajdodlarining sopol niqoblarini uylarida saqlagan, ularga qurbonlik va hadyalar qilganlar.

Qadimgi insonlarda shunday ishonch bo’lganki, go’yo vafot etganing tasviri, bosh suyagi va quticha ruhlari uchun vaqtincha turadigan joy hisoblangan va ma’lum

¹ Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. Toshkent. Sharq. 2001. – B. 91.

² Беруний. Памятники минувших поколений. Т. 1. Ташкент. 1957.-С. 236, 255.

bir kunlarda ular “jonlanganlar”. Qadimgi Markaziy Osiyo hududida ajdodlarning ruhlariga sig‘inish uchun ibodatxonalar qurilgan, bu yerdagi mehrobda olov yonib turgan, devor bo‘ylab qurilgan supalarda ovqatlar qo‘yilgan, shuningdek xudolarga va mahalliy aholining homiylariga bag‘ishlangan marosimlar o‘tkazilgan ajdodlarning ruhlariga sig‘inish uchun odamlar qabristonlar yonida bir qancha g‘ishtlardan marhum uchun “ota-onalar uyhasi” qurishgan. Ular ayniqsa ruhoniylar ko‘milgan joylarda ko‘p bo‘lgan, chunki bu manzilgohni ziyorat qiladiganlar ularning ruhi aynan shu joyda o‘z manzilini topadi deb ishonganlar. Buxorodagi qabrlarda, ruh bemalol kirib chiqishi uchun, maxsus teshikchalar qoldirilgan.

Qadimgi Panjikentdan topilgan (hozirgi Tojikiston hududida) devoriy rasmlardan birida dafn etish marosimi sahnasi tasvirlangan. Arksimon dafn etish inshooti ostida o‘lgan o‘smir yotibdi, to‘siq oldida, oq kiyimdagi odam dastasiz ko‘zani ehtiyotlik bilan olib bormoqda, yon tomonlardagi ikkita erkak mash‘alalarni ushlab turibdi. Devordagi rasmni o‘rgangan P.Kostrov mash‘alalar ustida tutun va olov tasviri bo‘lgan degan fikrni aytgan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, devordagi rasmda marhumni yog‘och to‘siqlar bilan birga yoqish marosimi tasvirlangan. Marosimda qatnashganlarning barchasi xizmatchilar bo‘lgan, har bir xizmatchiga muayyan vazifa yuklangan. Misol uchun, ko‘za ko‘targan kishi yoqilgan marhumning kulini yig‘ib olgan.

Yuqoridagi fikrlarni Afrosiyobdan topilgan yollanma yig‘lovchilarning haykalchalari tasdiqlaydi. Bu maqsadlar uchun hatto ayrim yer uchastkalari ham sotib olingan. Masalan, Mug‘ tog‘idan topilgan, yer uchastkasining sotilishi to‘g‘risidagi Sug‘d hujjatida “bu yer marhumning dafn marosimi uchun foydalaniladi”, deb yozilgan.

Lekin, Zardushtiylik tartib-qoidalariga binoan marhumni eslab baqirish va qichqirib yig‘lash ta‘qiqlangan. Chunki har bir tomchi ko‘z yoshi Chinvot ko‘prigi ostidagi daryoga tushadi, bu marhumning narigi dunyoga o‘tishini qiyinlashtiradi va uning ruhi shu joyda tiqilib qoladi, deb hisoblangan. Yuqorida keltirilgan dafn marosimi sahnalari va yuzlarni yulib, hatto qon ham oqadigan darajaga keltirib yig‘lash turkiylarga xosdir. Buni shunday izohlashimiz mumkinki, ilk o‘rta asrda Sug‘dda ma‘muriy boshqaruv kelib chiqishi aralash turkiy-sug‘diy sulolalar boshqaruviga asoslanganligi bilan izohlashimiz mumkin, jumladan Sug‘ddagi zardushtiylik dini mahalliy arxaik e‘tiqodlar bilan ham qorishib ketgan edi.

Islomning kirib kelishi bilan yollanma yig‘lovchilar o‘rnini qalandar-darveshlar egallaydi. Ular hurmatli kishilarning qabrlari yonida marosim raqsi “zikr”ni, qarindosh

ayollar esa “sadr”ni ijro etganlar³.

Islom dinining Movarounnahr hududiga kirib kelishi bilan qadimgi odatlarning ayrimlari sintezlashadi. Buning natijasida bu odatlar islomlashtiriladi. Bunday sintezlashgan odatlar Markaziy Osiyo xalqlari uchun xos bo‘lib, boshqa musulmon mamlakatlarida esa ular qabul qilinmagan. Masalan marhumning vafotining 20 va 40 kunlarini o‘tkazish va bir yilligiga ovqat tayyorlash, Qur‘ondan oyatlar o‘qishning hozirgi kungacha saqlanib kelayotganligini ta’kidlashimiz mumkin. Jahon dinlari-xristianlik va islomning kirib kelishi bilan avvalgi dinlarda mavjud bo‘lgan farishtalar-fravashilar timsoli yo‘qolmagan. Buni quyidagi vaziyatda ko‘rishimiz mumkin. Xristian ibodatxonalarini diniy ramzlar sifatida qanotli farishtalar tasviri bilan bezatilgan.

Islom dini kirib kelishi bilan farishtalar-ruhlar parilarga aylanadilar. Kiyev muzeyida O‘zbekistonda yaratilgan miniatyura saqlanib, unda Meroj kechasida payg‘ambar Muhammad (s.a.v) ning Buroq otida, olovli idishlar va mash‘alalar ko‘tarib olgan sakkizta qanotli farishta bilan birga osmonga ko‘tarilishi tasvirlangan⁴.

Sug‘d diniy qarashlarida “jin-farishta” tushunchalari ham mavjud bo‘lib, eronlik olim B.Sarkaratining fikricha, barcha zardushtiylik matnlarida avestocha rarika va o‘rta forscha rarik atamalarini Axriman tomonidan yaratilgan, yovuzlikni anglatuvchi, ayollar obrazini bildiradi. U devlar, dev-ayol jahikalar bilan birga tilga olinadi. Ammo u zardushtiylik dini kirib kelishi bilan inkor etilgan va Axrimanning yovuz hayvonlaridan deb e‘lon qilingan.

Buxorxudotlarning hashamatli saroyi Varaxshaning (Buxoro) shimoliy zalida, daraxt kundasida o‘tirgan qush ko‘rinshidagi ayol tasviri saqlangan. Panjikentda esa VIII asrga oid qush-odanning ikkita o‘ymakor shakli topilgan. Markaziy Osiyoda qush-ayol tasvirini turkiylar e‘tiqodidagi Umay ona Qush bilan bog‘lashimiz mumkin. Umayga ming yillar mobaynida Umay ona Qush deb murojaat qilingan. Uning tasvirlaridan birini Farg‘onadan topilgan XI-XII asrga oid mis idishda ko‘rish mumkin. Ushbu obrazni hozirgi kunlarga qadar ot, quyosh va yulduzlar tasviri uyg‘un bo‘lgan Samarqand idishlarida ko‘rish mumkin. Afsonalarga ko‘ra, qush uni ilondan qutqargan odamga sakkizta uzum boshini keltirgan. Rossiya Davlat Ermitajida saqlanayotgan, X-XII asrga oid, Amudaryo va Sirdaryo oraliqlariga tegishli deb hisoblanuvchi kumush idishda, yosh novdalari bo‘lgan shoxchalarga o‘ralgan va qo‘lida uzum boshini-hayotning yangilanishi va hosildorlikning ramzini ushlab turgan qush-ayolning tasviri

³ Сухарева О. А. Пережитки демонологии и шаманства у равнинных таджиков // Домусульманские верования и обряды в Средней Азии. № 2.1975. - С. 58.

⁴ Крачковская В. А. Мусульманское искусство в собрании Ханенко. Т. II // ЗКВ.Москва. 1938. - С. 37.

naqshlangan. Qush-ayol tasviri Samarqanddan (VIII-X asrlar) topilgan ostadonlarda ham tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, bir necha asrlar davomida Sharq va G‘arbni bir biri bilan bog‘lagan Buyuk ipak yo‘lini bugungi kunda ba’zi bir mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, O‘zbekiston, Shri Lanka, Yaponiya) o‘rganish bo‘yicha maxsus ilmiy institutlar barpo etilgan. BMT va YUNESKO qaroriga ko‘ra, Samarqand shahrida Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti ochilgan. 1997-yil mayda O‘rta Osiyoni Eron bilan bog‘lagan Saraxs – Mashhad temir yo‘l uchastkasi qurilishi tugallandi, bu bilan O‘rta Osiyo mamlakatlari Fors qo‘ltig‘iga, Yevropa mamlakatlari esa O‘rta Osiyoga chiqish imkoniga ega bo‘ldilar. Ilmiy va madaniy dasturlardan tashqari Buyuk ipak yo‘lini tiklash bo‘yicha jahonshumul ahamiyatga ega bo‘lgan loyiha amalga oshirilmoqda. Navbatdagi vazifa – O‘zbekiston va Xitoy o‘rtasidagi temir yo‘l uchastkasini qurishdir. Mana shu reja amalga oshgudek bo‘lsa, Atlantika okeanidan tortib Tinch okeanigacha bo‘lgan masofada Buyuk ipak yo‘lining “temir yo‘l” varianti to‘la tiklangan bo‘ladi. O‘zbekistonda Buyuk ipak yo‘lini tiklashga katta e‘tibor qaratilmoqda. 1995-yil 2-iyunda O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning Buyuk ipak yo‘lini qayta tiklashda O‘zbekistonning ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro sayyohlikni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risidagi farmoni e‘lon qilindi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абу Муҳаммад Аҳмад ибн Асам ал-Куфи. Книга завоеваний. Перевод с арабского языка академика АН Азербайжанской ССР З.М.Буниятова.- Баку: ЭЛМ. 1981. -84 с.
2. Абу Райхан Бируни. Избранные произведения. Т. VII. Математические и астрономические трактаты. //Отв. ред. Г.П. Матвиевская. Предисл., пер. и коммент. П.Г. Булгакова и Б. Розенфельда. - Ташкент: Фан, 1987. -345 с.
3. Абу Райхан Беруни. Избранные произведения. –Т.V. 4.1. –Кн. 1-5. Канон Масъуда //Отв. ред. С.Х. Сираждинов и Г.П. Матвиевская. Вступит, статья, пер. и прим. П.Г. Булгакова и Б.А. Розенфельда. – Ташкент: Фан, 1973. -648 с.
4. Абу Рейхан Бируни. Избранные произведения. Т. II. Индия // Пер. А.Б. Халидова и Ю.Н. Завадовского. Комментарии В.Г. Эрмана и А.Б. Халидова. Отв. ред. В.И. Беляев. – Ташкент: Изд. АН УзССР, 1963.-728 с.
5. Abul-Abbos Ahmad ibn Yahyo al-Balozuriy. “Futuh al-buldon” (“Mamlakatlarning fath etilishi”). arab tilidan tarjima, sharhlar, izohlar va ko‘rsatkichlar muallifi Sh.S. Kamoliddin. - Toshkent, 2017. - B. 37.



6. Абу-Аль-Касым Ибн Хаукал. Книга Путей и стран (фрагмент) //Проект Виртуальный Самарканд. Раздел «История Самарканда». Web site:www.e-samarkand.narod.ru.

7. Avesto. Tarixiy-adabiy yodgorlik / Asqar Mahkam tarjiması. T.: Sharq, 2001. – 384 b.

8. Ал-Балазури. Завоевание Хорасана (Извлечение из сочинения “Футух ал-булдан”). Пер.с арабского... Г. Гоибова. Душанбе, 1987. -120 с.